

YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH SHAROITIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RAG‘BATLANTIRISH ASOSIDA HUDUDLAR FAOLIYATINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISH

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich

Namangan davlat texnika universiteti

professori, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17062231>

Annotatsiya. Mazkur maqolada yashil iqtisodiyotga o‘tish sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillari va uning hududlarni iqtisodiy rivojlantirishdagi roli tahlil etilgan. Muallif kichik biznes subyektlarini rag‘batlantirish orqali ekologik xavfsizlikni ta’minlash va iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini taklif qiladi. Shuningdek, maqolada ekologik yo‘naltirilgan innovatsiyalarni amalga oshirishda kichik tadbirkorlikning imkoniyatlari, xususiy sektorning hududiy rivojlanishga qo‘shayotgan hissasi va mavjud muammolarni yechish bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, iqtisodiy rivojlanish, ekologik xavfsizlik, rag‘batlantirish mexanizmi, hududlarni rivojlantirish, innovatsiyalar.

Yashil iqtisodiyot konsepsiysi XXI asrning ekologik va iqtisodiy muammolarini hal qilish uchun eng samarali vositalardan biri sifatida dunyo hamjamiyati tomonidan keng e’tirof etilmoqda. Bugungi kunda ekologik barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni uyg‘unlashtirish global miqyosdagi dolzarb masalalardan biridir. Xalqaro tashkilotlar, xususan BMT, Jahon Banki va boshqa yetakchi tashkilotlar ekologik resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitga salbiy ta’sirlarni kamaytirish hamda barqaror iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishda yashil iqtisodiyotning ahamiyatini alohida ta’kidlab o‘tmoqda [1].

So‘nggi yillarda ko‘plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘nalishidagi davlat siyosati shakllantirilmoqda, yangi qaror va farmonlar qabul qilinmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqida “Yashil kelishuv” (Green Deal), AQSHda “Yashil yangi kelishuv” (Green New Deal) kabi

strategiyalar qabul qilinib, amaliyotga joriy etilmoqda [2].

O‘zbekistonda ham ushbu jarayon jadal rivojlanmoqda. Davlat tomonidan 2019-yilda qabul qilingan “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” mamlakatning ekologik va iqtisodiy rivojlanishini yangi bosqichga ko‘tarishga qaratilgan muhim hujjatlardan biridir [3]. Bu strategiya doirasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga alohida e’tibor qaratilib, ularning ekologik jihatdan barqaror faoliyat yuritishi uchun sharoitlar yaratilmoqda. Mazkur holatlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini ekologik asoslarda rivojlantirishni mamlakatning barqaror rivojlanishi uchun nihoyatda muhim ekanligini ko‘rsatadi.

Quyidagi 1-jadvalda Namangan viloyati va uning barcha tumanlarida 2020-2025 yillar davomida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlanishi ko‘rsatkichlari aks ettirilgan. Ushbu davr mobaynida ekologik xavfsizlik va barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishish yo‘lida amalga oshirilayotgan tadbirlar va dasturlar natijasida erishilgan yutuqlar tahlil qilinadi.

1-jadval

Namangan viloyati va uning barcha tumanlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlanishi (2020-2025 yillar)

Hududlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Namangan shahri	5%	8%	12%	16%	20%	25%
Chust tumani	4%	6%	9%	13%	18%	22%
Uchqo‘rg‘on tumani	3%	5%	7%	10%	15%	20%
Kosonsoy tumani	4%	7%	10%	14%	17%	21%
Pop tumani	3%	6%	8%	11%	15%	19%
Norin tumani	2%	4%	6%	9%	13%	17%
To‘raqo‘rg‘on tumani	2%	4%	7%	10%	13%	16%
Mingbuloq tumani	1%	3%	5%	8%	12%	15%
Namangan tumani	3%	5%	8%	12%	16%	20%
Uychi tumani	2%	4%	6%	9%	13%	17%
Yangiqo‘rg‘on tumani	2%	4%	7%	10%	14%	18%

Manba:Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Namangan viloyati va uning barcha tumanlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlanishi bo‘yicha 2020-2025 yillar oralig‘ida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Yashil iqtisodiyot tamoyillari deganda ekologik jihatdan xavfsiz texnologiyalarni qo‘llash, energiya va tabiiy resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish hamda atrof-muhitga salbiy ta’sirlarni kamaytirishga qaratilgan tadbirkorlik faoliyati nazarda tutilmoqda.

Namangan shahri bu borada viloyatdagi eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lib, 2020-yildagi 5% dan 2025-yilga kelib 25% darajaga yetishi kutilmoqda. Bu esa shaharda yashil texnologiyalar, energiya tejovchi vositalar va innovatsion ekologik yechimlarning keng qo‘llanilishi bilan bog‘liqdir.

Chust va Kosonsoy tumanlari ham yuqori sur’atlari bilan rivojlanmoqda. Bu tumanlarda ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan ishlab chiqarish korxonalari tashkil etish kabi chora-tadbirlarning ko‘lamni kengaymoqda. Shu sababli Chust tumani 2025-yilga kelib 22%, Kosonsoy tumani esa 21% rivojlanish ko‘rsatkichiga erishishi mumkin.

Uchqo‘rg‘on, Pop va Namangan tumanlarida yashil iqtisodiyot asosidagi rivojlanish barqaror tus olmoqda. Ushbu hududlarda kichik biznes korxonalari tomonidan qayta tiklanadigan energiya manbalari va ekologik xavfsizlikka e’tibor ortib bormoqda. Buning natijasida 2025-yilga kelib bu hududlarning rivojlanish ko‘rsatkichlari 19-20%ga yetishi proqnoz qilinmoqda.

Shu bilan birga, Norin, To‘raqo‘rg‘on, Uychi, Yangiqo‘rg‘on va Mingbuloq tumanlarida rivojlanish sur’atlari biroz pastroq bo‘lsa-da, ular ham barqaror rivojlanish yo‘lida harakat qilmoqda. Mingbuloq tumanidagi rivojlanish ayniqsa e’tiborga molikdir. 2020-yilda atigi 1% bo‘lgan ko‘rsatkich 2025-yilga kelib 15%ga yetishi bu hududda yashil iqtisodiy loyihalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganidan dalolat beradi. Bu tumanlarda kichik biznesning ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishga o‘tishi, mahalliy aholi orasida ekologik

madaniyatning shakllanishi va tadbirkorlarning ekologik javobgarlik hissi kuchayganligi bilan bog‘liqdir.

Ushbu umumiy tendensiyalar Namangan viloyatida yashil iqtisodiyot tamoyillarini tatbiq etish orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanayotganligini ko‘rsatmoqda. Shuningdek, bu yo‘nalishda davlat siyosatining samaradorligi va hududlarning ekologik-iqtisodiy salohiyatini oshirish imkoniyatlarini ta’kidlab turibdi.

Namangan viloyatida yashil iqtisodiyot tamoyillarining keng qo‘llanilishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishiga sezilarli ijobjiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, ekologik xavfsiz texnologiyalarni joriy qilish, energiya va resurslardan samarali foydalanish hamda atrof-muhitga ta’sirni kamaytirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar mazkur jarayonda muhim rol o‘ynayapti. Namangan shahri hamda Chust, Kosonsoy tumanlari yashil iqtisodiyotga o‘tishda yetakchilik qilayotgan bo‘lsa, boshqa tumanlar ham asta-sekin ushbu tendensiyani qo‘llab-quvvatlab, rivojlanishni ta’minlamoqda. Hududlararo rivojlanishdagi mavjud tafovutlarga qaramasdan, barcha tumanlarda barqaror rivojlanish yo‘lida sezilarli ijobjiy o‘zgarishlar kuzatilmoxda. Bu jarayon davlat tomonidan olib borilayotgan siyosatning samaradorligini ko‘rsatadi va kelgusida hududlarning ekologik-iqtisodiy salohiyatini yanada oshirish uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Viloyatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ekologik jihatdan barqaror rivojlanishi uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy farovonlikka va atrof-muhitni muhofaza qilishga sezilarli hissa qo‘shadi.

Adabiyotlar:

1. UNEP (2011). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. United Nations Environment Programme, Nairobi, 631 p.
2. European Commission (2019). The European Green Deal. European Commission, Brussels.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (2019). Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. PQ-4477-son qaror, 2019-yil 4-oktabr. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujatlari milliy bazasi.